

**TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY
OMILLARI**

*Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasи Falsafa fani o'qituvchisi
Elmuradova Surayyo Abdijalilovna*

Annotatsiya: Ushbu maqola ta`lim samaradorligini oshirish masalalarining turli jihatlari, jumladan ijtimoiy-falsafiy omillarning ta`sir doirasini tahlil etish orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta`lim, samaradorlik, tarbiya, o`quv, ijtimoiy-falsafiy omil, jamiyat.

KIRISH

Mamlakat istiqboli bugungi kunda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid siyosatining hayotga joriy etilishi bilan bog‘liqdir. Ta`lim tarbiya jarayoni ikki tomonlama – ta`lim oluvchi tomonidan bajariladigan o‘quv jarayoni xamda ta`lim beruvchining o‘rgatuvchilik farliyati yig‘indisidan iboratdir. Yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqlolga sadoqat ruhida tarbiyalash, har tomonlama yetuk va iqtidorli mutaxassislarni tayyorlash esa mamlakatimizning ta`lim tarbiya muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan ustoz murabbiylar zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yoshlarning jamiyat siyosiy hayotida faoliyat ishtirok etishlarida ularning kasbiy bilimlarini egallashlari bilan birga, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ijtimoiy siyosiy vaziyatni tezda anglash, mustaqil holda shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi mahorat va malakani egallashlarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish muhimdir. Bunda pedagogiktexnologiyalarni yangi usul

va vositalaridan foydalanishda ma'lumotlarni umumlashtirish, o'rganilayotgan tushunchalar, mavzular o'rtasida aloqadorlikni o'rnatish, ularni tahlil kilish, solishtirish va ayrim masalalarni kengroq yoritishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni usullaridan keng foydalanish qo'l keladi. YuNESKO tashkilotining ta'rifiga ko'ra, pedagogik texnologiya bu ta'lim shakllarni jadallashtirishni ko'zlagan o'qitishni va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnik va inson omillarida va ularning birgalikdagi xarakatlari vositasida yaratish tadbiq etish xamda izchil metodidir¹. Ta'lim samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish usulidan foydalanish talabalarning o'quv jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va muammoni xal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilish faoliyatları boshqriladi. Muammoli o'qitish siyosiy bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, jamiyat siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqeа va hodisalariga o'zining faol munosabatini bildirishda katta imkoniyatlar beradi. Muammoni jamoa tarzida hal etishning usul va vositalaridan foydalanish xam talabalarni erkin fikrlashga o'rgatishda, ularning faolligini oshirishda, bilimlarining nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyon etishda katta ahamiyatga ega. Bahs munozaralar, davra suhbatlari orqali yoshlarni dunyoqarashi, fikrlashi kengayadi, jamiyat ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan jarayonlar bilan tanishib boradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, odamning irodasi, dunyoqarashi baqquvat bo'lishi uchun uning hayotda, ertangi kunga, o'zining kuch va imkoniyatlariga ishonch mustahkam bo'lishi kerak. Kelajak avlodning ongi tafakkuri, dunyo qarashi, fikrlashi, siyosiy huquqiy madaniyati va ijtimoyi faolligi yuksalib borayotgani va bunday ijodiy o'zgarishlar bugungi va ertangi yutuqlarimizga mustahkam zamindur. Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis – yoshlar malakasi doimo davlatimiz va jamiyatimizning asosiy vazifasi bo'lib oladi.

¹ www.Educationindex.ru

Shunday qilib, ma'lum bir sohada mutaxassis tayyorlash jarayoni kelgusida inson madaniyatini shakllatirish bilan bog'liq bo'ladi. Agar madaniyatning insonning jamiyat tomonidan kundalik muloqatning rivojlanish bosqichida foydalanuvchi qadriyatlarga tayangan xolda o'z xatti harakatlariga ma'no berish qobiliyati sifatida eng tarqalgan va maqbul ta'riflanishidan kelib chiqadigan bo'lsak, umummadaniy gumanitar fanlarning kuchayishi haqida gapirsak bo'ladi. Aynan ular ta'lim jaryoniga to'g'ri kiritilgan xolda kelajakda shaxs madaniyatini, uning qadriyatlari yo'nalishini shakllatirishning asosi bo'la oladi. Ixtisoslashuvning o'ziga xos shaklini nazarda tutuvchi ta'lim tizimi faoliyati mazkur jamiyat uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy madaniy standart va qadriyatlarning saqlanishi bilan bog'liq bo'lishi lozim bo'lgan shaxsni shakllatirishga yo'naltiriladi. Bu xozirgi zamon yoshlari ko'p hollarda aynan ijtimoyi savodsizlikni namoyon qilib, mavjud qadriyatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo'luvchi hollarda muhim axamiyat kasb etadi. Sanab o'tish ko'pincha funksional savodsizlikni yoki boshqacha qilib aytganda nurli janrdagi yozma va og'zaki matnlar orqali o'z fikrini mantiqiy va to'g'ri aks ettira olmaslikni anglatadi. Shu sababli oliy kasb ta'limning maqsadlari faqat quyidagilar bilan cheklanib qolmasligi kerak²:

- kasbga oid turli xil muammoli vaziyat va vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini va ta'lim faolligini shakllantirish;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini tarbiyalash;
- vaziyatlarni modellashtirish va proqnoz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kombinatorlik va evristik qobiliyatlarni shakllantirish.

Bundan tashqari, talabaning umumiyligi madaniyatini rivojlantirish, uning ijtimoiy madaniy tasavvurlarini shakllantirishda, birinchi navbatda uning til madaniyatini katta axamiyatga ega.

² Kon I.S. Psixologiya yunosheskogo vozrasta: Problemy formirovaniyalichnosti / I.S.Kon . M.,2019

XULOSA VA MUNOZARA

Yoshlarimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi, siyosiy huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani va bunday ijobiy o‘zgarishlar kelajakdagи yutuqlarimizga mustahkam zamindir. Taraqqiyotimiz uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yetuk mutaxassis yoshlar masalasi davlatimiz va jamiyatimizning asosiy vazifasi bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. S.Ayniy. Asarlar, 8 jildlik, 1-jild, T.,2013 y.
2. Kon I.S. Psixologiya yunosheskogo vozrasta: Problemy formirovaniya lichnosti / I.S.Kon . M.,2019
3. www.Educationindex.ru
4. www.edu.uz www.Norma.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.tdiu.uz